
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI

Abduraximov Doniyor
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda ruhiy zo‘riqishlarning ortib borishi nevroz muammosini psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Tadqiqotning maqsadi nevroz tushunchasining psixodinamik, bixevioristik va ekzistensial-gumanistik yondashuvlar nuqtai nazaridan qanday talqin qilinishini aniqlash hamda uning amaliyotda keng tarqalgan turlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish, qiyosiy-nazariy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari nevrozning kelib chiqish sabablarini kompleks tushunish hamda uni oldini olish va korreksiyalashning samarali usullarini ishlab chiqishda nazariy asos sifatida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: nevroz, nevrasteniya, obsesiv-kompulsiv buzilish, isteriya, psixodinamik yondashuv, bixeviorizm, ekzistensial-gumanistik psixologiya, psixoterapiya

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ НЕВРОЗ

Аннотация: Рост психоэмоционального напряжения в современном обществе делает проблему невроза одним из актуальных направлений психологической науки. Цель исследования - определить, как понятие невроза интерпретируется в рамках психодинамического, бихевиористского и экзистенциально-гуманистического подходов, а также проанализировать его наиболее распространённые клинические формы. В исследовании применены методы систематизации научной литературы, сравнительно-теоретического анализа и обобщения. Результаты исследования могут служить теоретической основой для комплексного понимания причин возникновения невроза и разработки эффективных методов его профилактики и лечения.

Ключевые слова: невроз, неврастения, обсессивно-компульсивное расстройство, истерия, психодинамический подход, бихевиоризм, экзистенциально-гуманистическая психология, психотерапия,

PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF NEUROSIS

Abstract: The growing psychological strain in modern society makes neurosis one of the pressing subjects of contemporary psychology. The purpose of this study is to determine how the concept of neurosis is interpreted within the

psychodynamic, behavioral, and existential-humanistic approaches, and to analyze its most widespread clinical forms. The study applies methods of systematizing scientific literature, comparative-theoretical analysis, and generalization. The findings can serve as a theoretical basis for a comprehensive understanding of the causes of neurosis and for developing effective methods of its prevention and treatment.

Keywords: neurosis, neurasthenia, obsessive-compulsive disorder, hysteria, psychodynamic approach, behaviorism, existential-humanistic psychology, psychotherapy

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda kishilarning kundalik hayotidagi ruhiy zo‘riqishlar, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va axborot yuklamasining ortishi asab-ruhiy kasalliklarning, xususan, nevrozning kengroq tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois nevroz muammosi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nevrozning mustaqil kasallik yoki faqat psixologik muammo ekanligi masalasida olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas [1], bu esa muammoning nazariy jihatdan chuqurroq o‘rganilishini taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi - nevroz tushunchasining psixologiyaning uchta yetakchi yo‘nalishi, ya’ni psixodinamik, bixevioristik va ekzistensial-gumanistik yondashuvlar nuqtai nazaridan qanday talqin qilinishini aniqlash hamda uning amaliyotda keng tarqalgan turlari (nevrasteniya, obsesiv-kompulsiv nevroz, isteriya)ni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: nevrozga oid nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish; nevrozning asosiy klinik turlarini ularning etiologiyasi va davolash yondashuvlari nuqtai nazaridan yoritish; Sharq mutafakkirlari va mahalliy olimlarning nevroz borasidagi qarashlarini ilmiy muomalaga jalb etish.

Tadqiqotning obyekti - nevroz hodisasi, predmeti esa uning turli psixologik yo‘nalishlardagi nazariy talqini va klinik ko‘rinishlaridir. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda nevrozga oid g‘arb psixologik maktablarining qarashlari Sharq mutafakkirlari, jumladan Abu Ali Ibn Sino, hamda o‘zbek olimi Z.R.Ibodullayevning qarashlari bilan qiyosiy tahlil etilgan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish, qiyosiy-nazariy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Manba sifatida nevroz muammosiga bag‘ishlangan xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, jumladan Z.Freyd, A.Adler, K.Yung, K.Xorni, J.Volpe, K.Rojers, A.Maslou kabi olimlarning asarlari, shuningdek Abu Ali Ibn Sino va Z.R.Ibodullayevning ilmiy merosi tanlab olindi. Nevroz masalasi psixologiyada tan olingan uchta asosiy yo‘nalish - psixoanalitik,

bixevioristik va ekzistensial-gumanistik yondashuvlar doirasida quyidagicha o‘rganilgan.

Z.Freyd nevrozni axloqiy me’yorlar ta’sirida bostirilgan, birinchi navbatda jinsiy va agressiya kabi birlamchi biologik ehtiyojlar, qoidalar, ta’qiqlar, talablar orqali shakllanadigan ongli va ongsizlik o‘rtasidagi ziddiyatning natijasi, deb tushuntiradi [2].

A.Adler nevrozning mohiyatini noto‘liqlik hissi va o‘zini o‘zi tasdiqlash istagi, hokimiyatga chanqoqlik o‘rtasidagi ziddiyatda ko‘rgan [3]. Nevrozning mohiyati, A.Adlerning fikricha, butun shaxsga ta’sir qiladigan ekzistensial inqirozdir.

K.Yung guruhiy (arxetiplar) va shaxsiy (kompleks) ongsizlikni ajratadi. U nevrotik kasalliklarning manbai ongli "Men" bilan ziddiyatli yuqori darajadagi affektiv zaryadga ega komplekslar, deb hisoblaydi [4]. Shaxsda har doim "Men" obrazi ma’lum bir qarama-qarshiliklarga uchraydi, buning natijasida esa kasallik rivojlanishi mumkin.

K.Xorni insonning ikkita asosiy ehtiyojini aniqladi: xavfsizlikka hamda rohatlanishga bo‘lgan ehtiyoj. Bu ikki ehtiyojning mavjudligi nevrozga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar va nizolar manbai hisoblanadi. Uning nuqtai nazaridan, salomatlik va nevroz o‘rtasida sifat jihatidan farq yo‘q, faqat miqdoriy farq bo‘lishi mumkin [5].

Bixeviorizmda nevroz kasallik sifatida qaralmaydi, asosiy e’tibor esa nevrotik belgilarga qaratiladi. Asosan, nevrotik xatti-harakatlar noto‘g‘ri o‘rganish natijasi bo‘lgan noto‘g‘ri yoki patologik xatti-harakatlardir. J.Volpening fikriga ko‘ra, nevrozlar xavotirlik keltirib chiqaradigan vaziyatlarda orttirilgan va xavotirlikli reaksiyalar deyarli har doim markaziy bo‘lgan doimiy noto‘g‘ri odatlardir [6].

Nevrotik qo‘rquvlar oddiy qo‘rquvlar bilan bir xil tarzda rivojlanadi - klassik ma’lumot yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Bu qo‘rquvlar obyektiv xavf manbai bo‘lmagan ogohlantiruvchi vaziyatga reaksiya sifatida xizmat qiladi. Ba’zi omillarga hissiy sezgirlik, moyillik, ma’lumotlarning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar va fiziologik omillar (masalan, charchoq, kasallik) kiradi [7].

Gumanistik psixologiya tibbiyot amaliyotida K.Rojersning mijozga yo‘naltirilgan psixoterapiyasi va F.Perlsning Geshtalt terapiyasi kabi keng qo‘llaniladigan psixoterapevtik usullarining asosini tashkil etadi. A.Maslou insonparvarlik yondashuvi doirasidagi asosiy inson ehtiyojini o‘zini-o‘zi anglash zarurati, deb hisoblaydi. Nevroz - bu odamning o‘zidan va dunyodan begonalashishi natijasida o‘zini o‘zi anglay olmasligining natijasidir.

K.Rojers inson xulq-atvorining asosiy hayotiy motivini uning shaxsini saqlab qolish va rivojlantirish uchun barcha qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishdan iborat bo‘lgan aktuallashtirishga moyillik, deb hisobladi [8]. K.Rojersning nazariyasiga ko‘ra, xavotirlik va farovonlikka tahdid odamlar o‘z-o‘zini anglash va ularning haqiqiy holati o‘rtasidagi nomuvofiqlikni tan olishni boshlagandagina paydo bo‘ladi, bu esa oxir-oqibat ularni nevrozga olib keladi [9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlil nevrozning amalda uchta asosiy klinik turga - nevrasteniya, obsesiv-kompulsiv buzilish va isteriyaga ajratilishini ko‘rsatdi. Nevrozlar - uzoq davom etgan ruhiy zo‘riqish natijasida kelib chiqqan va turli neyropsixik kasalliklar bilan namoyon bo‘ladigan asab tizimining kasalliklaridir. Ular asab tizimining tug‘ma yoki orttirilgan zaifligi bo‘lgan odamlarda osonroq paydo bo‘ladi [10].

Nevrasteniya ko‘rinishida qo‘zg‘aluvchanlik va charchoqning kuchayishi hodisalari bilan asteniya va depressiya sindromi eng ko‘p ifodalanadi. Nevrasteniya bilan og‘rigan bemorlarga xos bo‘lgan shikoyatlar: asabiylashish, bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, uyqusizlik, sovuqqa, issiqlikka, o‘tkir tovushlarga, yorqin nurga sezgirlikning oshishi; yurak sohasida parasteziya, vazomotorlarning tez qizarishi, terlash, dispeptik kasalliklar shikoyatlari ustunlik qiladi.

Asab qo‘zg‘aluvchanligining kuchayishi bilan bir qatorda ishlashning pasayishi qayd etiladi, diqqat beqarorlashadi va xotira zaiflashadi. Charchoqning kuchayishi va qo‘zg‘aluvchanlikning kuchayishi o‘rtasida ichki bog‘liqlik mavjud: haddan tashqari qo‘zg‘atilgan funksiyalar osongina tugaydi. Nevrasteniya uchun prognoz qulay hisoblanadi - kasallik to‘liq davolanadi, davolash sifatida umumiy mustahkamlovchi vositalar, qulay shart-sharoitlar yaratish va rag‘batlantiruvchi psixoterapevtik suhbatlar tavsiya etiladi. Profilaktika esa kundalik jismoniy mashqlar, toza havoda sayr qilish va mehnat-dam olish tartibini to‘g‘ri tashkil etishdan iborat [11].

Obsesiv-kompulsiv nevroz ko‘pincha xavotirlikli va shubhali xarakter xususiyatlariga ega bo‘lgan shaxslarda travmatik sharoitlarda yuzaga keladi. Bemorlar o‘z harakatlariga ishonchlari komil bo‘lmaydi, ular gazni yoki chiroqni o‘chirganini eslay olmaydi; harakatlar va fikrlardagi qat’iyatsizlik, ikkilanish kuzatiladi. Balandlikdan qo‘rqish, infeksiyani yuqtirish qo‘rquvi va boshqa bir qator fobiyalar shu tur nevrozga xosdir.

Ba’zi mualliflar (E.Kretschmer, D.Ozeretskovskiy) kutish nevrozini ushbu turning kichik varianti sifatida ko‘rsatadi: bemorning doimiy shubhasi va yaqinlashib kelayotgan harakatdan qo‘rqishi asta-sekin og‘riqli hislar va harakatni bajara olmaslikka olib keladi. Obsesiv holatlarni davolashda yetakchi o‘rinni

ratsional psixoterapiya egallaydi, oldini olishda esa bolani o‘z kuchiga ishonish ruhida tarbiyalash muhim rol o‘ynaydi [12].

O‘rta Osiyo sharq allomalari asarlarida ham nevroz bilan bog‘liq holatlarga to‘xtalib o‘tilgan. Abu Ali Ibn Sino nevrasteniyaning bir qator belgilarini keltirib o‘tadi: ortiqcha ta’sirchanlik, o‘ynoqi kayfiyat, uyqu va ishtahaning yo‘qolishi, tashqi ta’sirotlarga (yorqin yorug‘lik, qattiq tovush) sezgirlikning oshishi. U bosh og‘rig‘ini ham ruhiy “xavotirliklardan” kelib chiqishiga ishora qiladi [13].

Abu Ali Ibn Sino tasvirlagan holatlarni hozirgi zamon tushunchalari bo‘yicha psixoastenik holatlar va kutish nevrozining varianti deb baholash mumkin. Olim bu kabi holatlarning sababini ruhiy shikast bilan bir qatorda organizmdagi kasalliklar, uzoq och qolish, qon yo‘qotish va bosh miya faoliyatidagi buzilishlar bilan bog‘lagan.

Mamlakatimiz olimlarining asarlarida ham nevroz turlari atroflicha yoritilgan. Xususan, tibbiyot fanlari doktori, professor Z.R.Ibodullayev nevrozga quyidagicha ta’rif beradi: "Ruhiy jarohat yetkazuvchi omillar natijasida rivojlanadigan asab sistemasining funksional kasalligiga nevroz deyiladi" [14]. Bu ta’rif nevrozning psixogen tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi va yuqorida ko‘rib chiqilgan g‘arb psixologik maktablari xulosalari bilan mos keladi.

Nevrozning uchinchi asosiy shakli - isteriya boshqa ikkisidan ko‘rinishi bilan keskin farq qiladi. Nevrasteniyada bemorni asosan charchoq va asabiylashish qiynasa, obsesiv-kompulsiv holatda fikr va harakatlardagi ikkilanish birinchi o‘ringa chiqadi. Isteriyada esa ichki ziddiyat ko‘pincha tana orqali ifodalanadi: bemor to‘satdan ovozini yo‘qotishi, qo‘l yoki oyog‘ida vaqtincha harakat sustlashuvi, sezgirlikning susayishi yoki tutqanoqni eslatuvchi hurujlarni boshdan kechirishi mumkin. Tekshiruvda bunday belgilarni tushuntiradigan organik o‘zgarish topilmaydi [11]. Bu yerda bir jihatni to‘g‘ri tushunish muhim: bemor alomatlarni ataylab o‘ylab topmaydi, ular ongsiz tarzda, ruhiy zo‘riqishdan “qutulishning” o‘ziga xos yo‘li sifatida shakllanadi [12].

Isteriya odatda hissiyotga beriluvchan, xayolparast va atrofdagilarning e’tiboriga muhtoj shaxslarda ko‘proq uchraydi [12]. Psixodinamik yondashuv buni bostirilgan ziddiyatning jismoniy alomatga aylanishi, ya’ni konversiya sifatida tushuntiradi [2]. Bixevioristik nuqtai nazardan esa manzara biroz boshqacha: agar alomat paydo bo‘lganda bemorga g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘proq qaratilsa, u mustahkamlanadi va keyingi qiyin vaziyatlarda yana takrorlanishi mumkin [6], [7]. Bu ikki talqin bir-biriga zid emas. Birinchisi alomat qanday paydo bo‘lganini, ikkinchisi u nega saqlanib qolayotganini izohlaydi. Amaliy ish uchun ikkala jihatni birga hisobga olish maqsadga muvofiq.

Isteriyani davolashda psixoterapiya yetakchi o‘rinni egallaydi. Bemorga alomatning ruhiy asosini tushuntirish, hissiy zo‘riqishini kamaytirish va oiladagi muhitni tartibga solish muhim hisoblanadi [12]. Kasallikning borishi ko‘p jihatdan alomatlarning davomiyligiga va atrofdagilarning bemorga munosabatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Uchala turni yonma-yon qo‘yib ko‘rsak, ularning umumiy va farqli jihatlari yaqqol ko‘rinadi. Umumiy jihat shuki, hammasida boshlang‘ich omil ruhiy zo‘riqish yoki ruhiy jarohat bo‘lib, kasallik funksional xarakterga ega [10], [14]. Farq esa zo‘riqishning qaysi “yo‘l” bilan chiqishida: nevrasteniyada u umumiy holsizlik va qo‘zg‘aluvchanlik, obsesiv-kompulsiv nevrozda - fikr va harakatlardagi qat’iyatsizlik hamda qo‘rquvlar, isteriyada esa tanadagi ko‘zga tashlanadigan alomatlar shaklida namoyon bo‘ladi. Shu sababli barcha turga bir xil yondashuvni qo‘llash to‘g‘ri bo‘lmaydi: nevrasteniyada mehnat va dam olish tartibini tiklash birinchi o‘rinda tursa [11], obsesiv holatlarda ratsional psixoterapiya [12], isteriyada esa alomatning ruhiy ma’nosi bilan ishlash asosiy vazifaga aylanadi.

Nazariy yondashuvlar bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish maqsadida ularni 1-jadvalda qiyosiy shaklda keltirdik.

1-jadval. Nevrozga oid asosiy nazariy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Yondashuv	**Nevrozning asosiy sababi**	**Markaziy tushuncha**	**Korreksiya yo‘nalishi**
Psixodinamik (Z.Freyd, A.Adler, K.Yung, K.Xorni) [2], [3], [4], [5]	Ongli va ongsiz o‘rtasidagi bostirilgan ziddiyat, noto‘liqlik hissi, affektiv zaryadli komplekslar	Ongsiz ziddiyat	Ziddiyatni anglashga yordam berish
Bixevioristik (J.Volpe) [6], [7]	Xavotirlik bilan bog‘liq noto‘g‘ri o‘rganilgan xatti-harakat	Xavotirli reaksiya, odat	Noto‘g‘ri odatlarni o‘zgartirish, qayta o‘rganish
Ekzistensial-gumanistik (K.Rojers, A.Maslou) [8], [9]	O‘zini o‘zi anglash va haqiqiy holat o‘rtasidagi nomuvofiqlik, begonalashish	O‘zini o‘zi amalga oshirish	Shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish, mijozga yo‘naltirilgan psixoterapiya

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir yo‘nalish nevrozga o‘zining savoli bilan yondashadi. Psixodinamik yondashuv “nima uchun?” degan savolga ichki ziddiyat orqali javob izlaydi, bixeviorizm “nima uni saqlab turibdi?” degan savolga e’tibor qaratadi, gumanistik yondashuv esa “bu holat shaxs uchun nimani anglatadi?” deb

so‘raydi. Shu sababli ularni raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi nazariyalar deb baholash to‘g‘riroq. Shu bilan birga, yondashuvlar ichida ham farqlar bor: Z.Freyd va A.Adler ziddiyatni ichki kuchlarning to‘qnashuvida ko‘rsa, K.Rojers uni shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuri bilan haqiqiy tajribasi o‘rtasidagi tafovutda ko‘radi [2], [3], [9]. K.Xorni esa sog‘lomlik va nevroz o‘rtasidagi farqni sifat emas, miqdor darajasida deb hisoblaydi [5], bu nevrozni alohida “kasallik” emas, balki me’yorning davomi sifatida tushunishga imkon beradi.

Nazariy yondashuvlarning farqi obsesiv-kompulsiv nevrozda ayniqsa yaqqol seziladi. Bemorning gazni yoki chiroqni o‘chirganini eslay olmasligi, uni qayta-qayta tekshirishga majburlashi klinik jihatdan shubha va qat’iyatsizlik belgisi sifatida tavsiflanadi [12]. Bixevioristik nuqtai nazardan esa bu xatti-harakatning yana bir tomoni ko‘rinadi: har bir tekshiruvdan keyin xavotirlik vaqtincha pasayadi, bu esa tekshirish odatini mustahkamlaydi, natijada bemor “yengillik” uchun yana va yana shu harakatga qaytadi [6], [7]. Kutish nevrozida ham shunga o‘xshash mantiq kuzatiladi: bemor bajarishi kerak bo‘lgan harakatdan qo‘rqadi, bu qo‘rquv esa uni bajarishga xalaqit beradi va qo‘rquvni kuchaytiradi [12]. Ya’ni xavotirlik bu yerda ham sabab, ham natija vazifasini bajaradi. Shuning uchun ratsional psixoterapiya bemorning fikrlari va xatti-harakatlaridagi shu o‘zini-o‘zi mustahkamlovchi doirani uzishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Kirish qismida nevrozning mustaqil kasallik yoki faqat psixologik muammo ekanligi borasida olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘qligi qayd etilgan edi [1]. Tahlil bu bahsning ildizini ko‘rsatib beradi. Bixeviorizm kasallikning o‘ziga emas, nevrotik belgilarga e’tibor qaratadi [6], K.Xorni farqni miqdoriy deb biladi [5], tibbiy manbalar esa nevrozni asab tizimining funksional kasalligi sifatida ta’riflaydi [10], [14]. Demak, bahsning katta qismi tadqiqotchi qaysi nuqtai nazardan turishiga, ya’ni tibbiy yoki psixologik nuqtai nazardan qarashiga bog‘liq. Psixologik tadqiqot uchun esa muhimi - nevrozni ayrim belgilar yig‘indisi emas, balki shaxsning ruhiy hayoti, munosabatlari va ichki ziddiyatlari bilan bog‘liq holat sifatida ko‘rishdir.

Sharq va mahalliy manbalarni g‘arb nazariyalari bilan qiyoslash ham qiziqarli xulosalarga olib keladi. Ibn Sino nevrozga o‘xshash holatlarning sababini faqat ruhiy shikastda emas, organizmning umumiy ahvolida ham - uzoq och qolish, qon yo‘qotish, bosh miya faoliyatidagi buzilishlarda ham ko‘radi [13]. Z.R.Ibodullayev esa o‘z ta’rifida ruhiy jarohatni birinchi o‘ringa qo‘yadi [14]. Ikki fikrni yonma-yon o‘qisak, nevroz sabablariga ko‘p omilli qarash shakllanganini ko‘ramiz: ruhiy ta’sir asosiy turtki bo‘lishi mumkin, biroq charchoq, kasallik, asab tizimining tug‘ma yoki orttirilgan zaifligi kasallik rivojlanish ehtimolini oshiradi [7], [10], [13]. Bunday qarashni hozirgi biopsixosotsial modelga yaqin deyish mumkin va bu Sharq tibbiyot va psixologiya merosining ilmiy qimmatini yana bir bor ko‘rsatadi.

Ibn Sino keltirgan belgilarni nevrasteniyaga xos zamonaviy shikoyatlar bilan solishtirish ham e’tiborga loyiq. Ortiqcha ta’sirchanlik, uyqu va ishtahaning buzilishi, yorqin yorug‘lik hamda qattiq tovushga sezgirlikning oshishi bugungi klinik tavsiflarda ham asosiy alomatlar qatorida turadi [11], [13]. Qariyb ming yil avval yozilgan asarda tasvirlangan holatlarning hozirgi kuzatuvlar bilan bunchalik mos kelishi, nevrozning yangi davr hodisasi emas, balki insoniyat tarixi davomida mavjud bo‘lgan holat ekanini ko‘rsatadi. Farq faqat uni izohlash tilida: qadimgi tabobatda u tana va ruh muvozanatining buzilishi sifatida, hozirgi psixologiyada esa aniq nazariy modellar orqali talqin etiladi.

Amaliy nuqtai nazardan bu tahlil bitta muhim xulosaga olib keladi: nevrozni bartaraf etishda yagona nazariyaga tayanish yetarli emas. Bemorning ahvoli, yoshi, shaxsiy xususiyatlari va nevroz turiga qarab psixodinamik, bixevioristik va gumanistik usullarni uyg‘unlashtirish, ya’ni integrativ yondashuvni qo‘llash samaraliroq bo‘ladi. Masalan, obsesiv holatda xatti-harakatni o‘zgartirishga qaratilgan usullar, isteriyada ichki ziddiyat bilan ishlash, nevrasteniyada esa shaxsning kuchini tiklashga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlovchi suhbatlar birinchi o‘ringa chiqishi mumkin.

Tahlil profilaktika masalasida ham bir necha muhim xulosaga imkon berdi. Manbalarda tilga olingan choralar - kundalik jismoniy mashqlar, toza havoda sayr, mehnat va dam olish tartibi [11], bolani o‘z kuchiga ishonish ruhida tarbiyalash [12] - birinchi qarashda oddiy ko‘rinadi. Biroq nazariy yondashuvlar bilan taqqoslasak, ularning ortida aniq mantiq borligi ko‘zga tashlanadi: tartibli hayot va jismoniy faollik asab tizimining zaxirasini saqlaydi va nevrasteniya xavfini kamaytiradi, o‘ziga ishonch tarbiyasi shubha va qat’iyatsizlikni yumshatadi, gumanistik nuqtai nazardan esa shaxsning o‘zini anglashi uchun zamin yaratadi [9].

Shu o‘rinda tadqiqotning chegarasini ham aytib o‘tish joiz. Ish nazariy-qiyosiy xarakterga ega bo‘lib, unda empirik ma’lumotlar (psixodiagnostik so‘rovnomalar, klinik kuzatuvlar) qo‘llanilmadi. Shu bois olingan xulosalar nevrozning turli talqinlarini tizimlashtirish va ularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish doirasida qoladi. Keyingi bosqichda ushbu nazariy asosni aniq yosh guruhlari bo‘yicha o‘tkaziladigan psixodiagnostik tekshiruvlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalarini qisqacha umumlashtirsak, quyidagilarni aytish mumkin. Birinchidan, nevrozning uchala klinik turi - nevrasteniya, obsesiv-kompulsiv nevroz va isteriya - umumiy psixogen asosga ega bo‘lsa-da, klinik ko‘rinishi va korreksiya yo‘nalishi bilan farqlanadi. Ikkinchidan, psixodinamik, bixevioristik va ekzistensial-gumanistik yondashuvlar nevrozning turli qatlamlarini izohlaydi va bir-birini to‘ldiradi. Uchinchidan, Sharq mutafakkirlari hamda mahalliy olimlarning

qarashlari g‘arb nazariyalari bilan mos kelib, nevrozga ko‘p omilli yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil natijasida nevroz psixogen kasallik ekanligi, uning kelib chiqishi turli psixologik yo‘nalishlarda turlicha izohlanishi aniqlandi: psixodinamik yondashuv nevrozni ongli va ongsizlik o‘rtasidagi ichki ziddiyat natijasi, bixevioristik yondashuv noto‘g‘ri o‘rganilgan xatti-harakat, ekzistensial-gumanistik yondashuv esa shaxsning o‘z-o‘zini anglash va o‘zini o‘zi amalga oshirish jarayonidagi to‘siq sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot davomida nevrozning amaliyotda eng ko‘p uchraydigan turlari - nevrasteniya, obsesiv-kompulsiv nevroz va isteriyaning har biri o‘ziga xos etiologiya, klinik ko‘rinish va korreksiyalash yondashuviga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari va mahalliy olimlarning ilmiy merosi nevrozning psixogen tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi, bu esa mavzuning nafaqat g‘arb, balki mahalliy ilmiy an’analarda ham chuqur ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Александров, А. А. (2002). Феномен «невротической тревоги»: психогенез и терапия расстройств. В Клинические Павловские чтения: Кризисные состояния. Суицидальное поведение (Вып. 4, с. 14–15). Человек.
2. Freud, S. (1924). Neurose und Psychose. Internationale Zeitschrift für Psychoanalyse, 10(1), 1–5.
3. Адлер, А. (1997). Наука жить (Е. О. Любченко, пер.). Port-Royal.
4. Юнг, К. Г. (2006). Психологические типы. АСТ.
5. Хорни, К. (1997). Собрание сочинений в трёх томах: Т. 1. Психология женщины; Невротическая личность нашего времени. Смысл.
6. Wolpe, J. (1964). Behavior therapy. American Psychologist, 19(1), 59.
7. Паттерсон, С. Х., & Уоткинс, Э. (2003). Теории психотерапии. Питер.
8. Маслоу, А. (2008). Мотивация и личность (3-е изд.). Питер.
9. Роджерс, К. (1994). Взгляд на психотерапию. Становление человека. Прогресс.
10. Блейхер, В. М., & Крук, И. В. (1995). Толковый словарь психиатрических терминов. Воронеж.
11. Штульман, Д. Р. (2000). Нервные болезни. Москва.
12. Михеев, В. В. (1974). Нервные болезни. Москва.
13. Ibn Sino, A. A. (2020). Tib qonunlari (3-kitob). Sharq.
14. Ibodullayev, Z. (2019). Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz